
Rishtonlik yosh tadbirkor Toshkentdagi ko'rgazmada

Rishton kulolchilik mahsulotlari bugungi kunda jahon bozorini zabt etib bormoqda. Birgina «Mingboshi keramik» kulolchilik klasterida tayyorlanayotgan mahsulotlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'z xaridorlariga ega bo'lib borayotgani kishini quvontiradi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatdan keng foydalanayotgan usta kulol Shokirjon Ahmadjonov eksport geografiyasini kengaytirish borasida ham tinimsiz izlanmoqda.

«Mingboshi keramik» korxonasida doimo ish qizg'in. Deyarli har kuni kulolchilik mahsulotlarning eksportga jo'natilayotganiga guvoh bo'lasiz.

Ushbu korxonada rahbari Shokirjon Ahmadjonov Toshkent shahrida bo'lib o'tayotgan Sraft Fair Uzbekistan ko'rgazmasida ishtirok etmoqda.

Shokir Ahmadjonov ushbu ko'rgazmada mashhur xorijiy tadbirkor bilan haikorlik borasida suhbatlashdi.

2022-12-02 09:53:25